

**Elektromobil va yashil shahar transporti bo'yicha o'quv dasturini ishlab
chiqish uchun tanlov o'tkazish reglamenti**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur reglament Transport vazirligi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) hamkorligida amalga oshirilayotgan "Toshkent - kam uglerodli transportga investitsiyalarni jadallashtirish" loyihasi (keyingi o'rinlarda - Loyiha) doirasida elektromobil va yashil shahar transporti bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish maqsadida nomzodni tanlab olish uchun tanlov o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Kam qiymatli grantlar (keyingi o'rinlarda - grant) deganda qaytarish talab qilinmaydigan rivojlanish yechimlarini yaratish va ilgari surish maqsadida tanlab olinadigan fuqarolik jamiyati institutlariga beriladigan pul mukofotlari tushuniladi.

3. O'quv dasturini ishlab chiqishdan maqsad oliy ta'lim tashkilotlarida elektromobil va yashil shahar transportini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bilim hamda ko'nikmaga ega bo'lgan talabalarni tayyorlashdan iborat.

4. Grantdan foydalanishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

a) kam uglerodli transport sohasini rivojlantirishda muhim bo'lgan tashkilotlarning institutsional va ilmiy salohiyatini mustahkamlash;

b) texnologik yechimlar, iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlar, gender tengligi va qashshoqlikni bartaraf etish bo'yicha faoliyat olib borayotgan nodavlat va jamoatchilik tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash;

v) tajriba o'tkazish va yashil transport texnologiyalarini joriy etish talab etiladigan rivojlanish muammolariga yechim topish.

5. Tanlov natijalariga ko'ra grantni oladigan nomzod Elektromobil va yashil shahar transporti bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish uchun nomzodlarni tanlab olish komissiyasi (keyingi o'rinlarda - komissiya) tomonidan aniqlanadi.

6. Grantlar ajratish jarayoni eksklyuziv hisoblanmaydi. Bir nechta nomzod bir xil rivojlanish yo'nalishi bo'yicha alohida grantlarga ega bo'lishi mumkin yoki hamkorlikni rivojlantirish maqsadida konsorsiumga yagona grant ajratilishi mumkin.

7. Grant oluvchilar loyihaaning manfaatdor tomonlari sifatida ishtirok etishi yoki bevosita manfaatdor bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlari hamda hukumat tashkilotlari (masalan, mahalliy hokimiyatlar va boshqalar) grant olish huquqiga ega emas. Grant quyidagi tashkilotlarga berilishi mumkin:

nodavlat ilmiy-tadqiqot yoki oliy ta'lim tashkilotlari;

davlat muassasasi tarkibida faoliyat yurituvchi nodavlat tashkilotlar (fondlar).

8. Grant mablag'i 2025-2026-yillar uchun umumiy 45000 AQSH dollarini tashkil qiladi. Bir nechta grant olish uchun grant oluvchi oldingi grant shartnomasida kelishilgan natijalarni amalga oshirgan bo'lishi lozim va yangi grant shartnomasi imzolanishi kerak.

9. Grant oluvchi tomonidan kelib tushgan takliflarni baholash komissiya tomonidan quyida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- ta'lim jarayonining transport, ayniqsa yo'l transporti sohasi bo'yicha ixtisoslashuvi;
- ta'lim muassasasining xalqaro reytinglardagi o'rni;
- oliy ta'lim sohasida muassasaning faoliyat yuritishi muddati;
- bitiruvchilarga mehnat bozorida bo'lgan talab darajasi;
- zamonaviy o'quv jihozlarining, shu jumladan, amaliy mashg'ulotlar va tajriba uchun elektrobusning mavjudligi.

II. Tanlov o'tkazish tartibi

10. Tanlov haqidagi axborot Transport vazirligi, BMT Taraqqiyot Dasturining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

11. Grant oluvchi nomzodlardan takliflarni qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 10 kun etib belgilanadi.

12. Belgilangan muddat tugagach, komissiya kelib tushgan takliflarni bir oy mobaynida tanlov mezonlariga muvofiqligi bo'yicha baholaydi.

13. Barcha kelib tushgan takliflar komissiya a'zolari tomonidan bevosita ko'rib chiqiladi va baholanadi. Bunda, har bir grant taklifiga tegishli ball beriladi va ballar kamayish tartibida saralanadi. Har bir mezonga hisoblanadigan maksimum ball 20 ballni, jami maksimum ball 100 ballni tashkil etadi.

14. Tanlov natijalari, ya'ni qaysi nomzod tanlab olingani tanlov qanday e'lon qilingan bo'lsa, shunday usulda ma'lum qilinishi lozim.

15. Komissiya tomonidan nomzod tanlanganidan so'ng, Transport vazirligi grant oluvchilar bilan ikki oy ichida shartnomalar tuzish uchun mas'ul hisoblanadi.

III. Tanlab olish komissiyasi

16. Komissiya Transport vazirligi, BMT Taraqqiyot Dasturi hamda "Toshshahartransxizmat" AJ vakillaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Komissiya a'zolari Tanlovga taqdim etilgan arizalarni xolisona ko'rib chiqishi, kasbiy etika, talab va mazkur Reglamentda belgilangan qoidalarga rioya qilishi shart. Komissiya a'zolari ariza taqdim etgan tashkilotlar manfaatini ifoda etishi yoki himoya qilishi mumkin emas.

17. Komissiya a'zosining mazkur Tanlov doirasida nomzodlar bilan o'zaro munosabati mavjud bo'lsa, u bu haqda Tashkilotchilar vakiliga xabar berishi va ushbu tashkilot takliflarini baholashda ishtirok etmasligi lozim.

18. Komissiya har bir a'zosi takliflarni erkin baholash huquqiga ega va Komissiya qaroriga to'g'ri kelmaydigan alohida fikr bildirishi mumkin. Bu fikr

rasmiy ravishda rasmiylashtiriladi va Komissiya yig'ilishi bayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

19. Komissiyaning asosiy funksiyalari:

- Tanlovda kelib tushgan takliflar mazkur reglamentda belgilangan talablarga muvofiqligini baholash;
- zarur hollarda ishchi organ vakili orqali muayyan ishtirokchidan qo'shimcha ma'lumot yoki izoh/sharh so'rash;
- har bir taklif bo'yicha, shu jumladan, uni moliyalashtirish maqsadga muvofiqligi haqida xulosa taqdim etish;
- Tanlovning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va baholash mezonlariga javob beradigan eng yaxshi takliflarni tanlash;
- Tanlov g'oliblari ro'yxatini shakllantirish va uni Transport vazirligi va BMT Taraqqiyot Dasturiga topshirish;
- Tanlovning barcha ishtirokchilari va g'oliblar ro'yxatini e'lon qilish hamda har bir grant loyihasi bo'yicha hisobotlarni Transport vazirligi hamda BMT Taraqqiyot Dasturining rasmiy veb-saytida chop etish.

IV. Yakunlovchi qoidalar

20. Grant oluvchilar grantni amalga oshirish uchun o'z xodimlari, tizimlari, loyihalari, tarmoqlari, tartib-qoidalari va ayrim hollarda o'z mablag'laridan foydalanadi. Agar loyiha hujjatida boshqacha tartib ko'zda tutilgan bo'lmasa, grant mablag'lari hisobidan grant oluvchi tashkilot tomonidan sotib olingan aktivlar va uskunalar grant oluvchi tashkilotning mulki hisoblanadi.

21. Grant mohiyatiga muvofiq grant mablag'lari grant shartnomasida belgilangan natijalar yoki yutuqlarga erishishdan oldin ajratiladi. Grant shartnomasida grant oluvchiga to'lanadigan mablag'lar va to'lov jadvali ko'rsatiladi.

22. Mablag'larning ajratilishi, jumladan, grant summalarining hisobi yuritilishi Transport vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Agar grant oluvchi o'z majburiyatlarini buzgan bo'lsa, Transport vazirligi to'lovlarni to'xtatishga haqli.

23. Grant to'lovlarini o'tkazib berish xarid faoliyati hisoblanmaydi.

24. Grant oluvchi grant shartnomasida belgilanganidek, grant mablag'laridan foydalanish bo'yicha mavzuga doir va moliyaviy hisobot berish uchun javobgar. Hisobotda faoliyatning bajarilganligini tasdiqlovchi tegishli dalillar ilova qilinishi lozim, masalan: fotosuratlar, o'quv dasturlari, talabalarni o'qishga qabul qilish buyrug'i, uchrashuv bayonnomalari, ro'yxatdan o'tish varaqalari va boshqalar.

25. Grant oluvchilar Transport vazirligiga keyingi mablag' ajratilishidan kamida 30 kun oldin faoliyat natijalari bo'yicha hisobot taqdim etishi shart. Agar grant bir yildan ortiq davom etsa, grant oluvchi har yili hisobot taqdim etishi lozim. Grant muddati tugaganidan so'ng, grant oluvchi yakuniy, mavzuga doir va moliyaviy hisobotni taqdim etishi kerak. Ushbu hisobotga moliyaviy hisobot uchun mas'ul bo'lgan grant oluvchi tashkilot vakili tomonidan tasdiqlash sanasi bilan birga tasdiqlovchi imzo qo'yilishi talab etiladi.

26. Grant oluvchi tashkilotni aniqlash va grant mablag'larini o'tkazib berish jarayonida ushbu reglamentda nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida komissiya tomonidan qarorlar qabul qilinadi.

**Elektromobil va yashil shahar transporti bo'yicha o'quv dasturini ishlab
chiqish uchun nomzodlarni tanlab olish komissiyasi**

TARKIBI

- | | | | |
|----|-----------------|---|---|
| 1. | I.Abdugafarov | — | O'zbekiston Respublikasi Transport vaziri o'rinbosari, <i>Komissiya raisi</i> |
| 2. | V.Ismailov | — | Transport vazirligi Avtomobil va jamoat transporti departamenti boshlig'i |
| 3. | A.Suyunov | — | Transport vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i |
| 4. | S.Sattarov | — | "Toshshahartransxizmat" AJ boshqaruvi raisi v.b. |
| 5. | A.Ximmatov | — | Transport vazirligi Moliya-iqtisod va tarif boshqarmasi boshlig'i |
| 6. | L.Ulmasova | — | Transport vazirligi Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'linmasi bosh mutaxassisi |
| 7. | I.Akramov | — | BMT Taraqqiyot Dasturi xodimi |
| 8. | N.Xudayberdiyev | — | Loyihani boshqarish guruhi rahbari, <i>Komissiya kotibi</i> |

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ko'rsatilgan lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.